



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI  
QASHQADARYO VILOYATI BANDLIK BOSH BOSHQARMASI  
**B U Y R U Q**

“09” 06 2022 yil

No 183 X/S

Qarshi shahar

**Xizmat safariga  
yuborish to‘g‘risida**

1. Bosh boshqarmaning xo‘jalik ishlari mudiri Sunnatov Nurbek Narzilayevich hamda Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi xo‘jalik ishlari mudiri Razzoqov To‘lqin Xamrayevichlar vazirlik tomonidan Ko‘kdala ABKM taqdim etilgan jihoz va asbob uskunalar hamda maxsus kiyimlarni belgilangan tartibda olib kelish uchun **2022 yil 9 iyundan 3 (uch) kun muddatga** Toshkent shahriga xizmat safariga yuborilsin.

2. Xizmat safari bilan bog‘liq harajatlar N.Sunnatovga bosh boshqarma hisobxonasidan, T.Razzoqovga Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan belgilangan tartibda to‘lansin.

*Asos: Vazirlilikning topshirig‘i.*

**Bosh boshqarma boshlig‘i**

**R.G‘afurov**



**ASLIGA TO‘G‘RI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI  
QASHQADARYO VILOYATI BANDLIK BOSH BOSHQARMASI**

**BUYRUQ**

“27” 09 2022 yil

No 123-I/CH

Qarshi shahri

**O'zbekiston Respublikasi Bandlik va  
mehnat munosabatlari vazirligining  
2022 yil 29 avgustdagи 240-ICH- sonli  
buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi "Qashqadaryo viloyati tarkibida Ko'kdala tumani tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalarini hal yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-211-sonli qaroriga muvofiq Ko'kdala tumanida tashkil etilgan Aholi bandligiga ko'maklashish markazini moddiy – texnika bazasini mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022 yil 29 avgustdagи 240-ICH-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida maqsadida.

**B U Y U R A M A N:**

1. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022 yil 29 avgustdagи 240-ICH-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Bandlik bosh boshqarmasi bosh hisobchisi (SH.Davlatova) va xo'jalik mudiri (N.Sunnatov)lar ilovada muvofiq ajratilgan asosiy vositalarni belgilangan tartibda vazirlikdan olib kelib bosh boshqarmani hisobxona balansiga kirim qilib, Ko'kdala tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi hisobxona balansida aks ettirilishini nazoratga olsin.
3. Ko'kdala tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktoriga beg'araz berilgan asosiy vositalar va moddiy boyliklar bo'yicha moddiy javobgar shaxslarni tayinlash hamda ma'sul xodim bilan moddiy javobgarlik shartnomasini tuzish vazifasi yuklatilsin.
4. Bosh boshqarma hisobchisi (SH.Davlatova) hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish bo'limi boshlig'i (E.Bozorov)lar beg'araz berilgan asosiy vositalarni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish va bosh boshqarma balansdan chiqarish vazifasi yuklatilsin.
5. Mazkur buyrug'n ni ijrosini nazorat qilish bosh boshqarmani birinchi o'rnbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

**Bosh boshqarma boshlig'i v/b**

**A.Kadirov**



**ASLIGA TO'G'RI**

*Murodov Sh.*

**Bandlik bosh boshqarmasining  
2022-yil “17” 09 123-son  
buyurugiga ILOVA**

Ko‘kdala tumanida tashkil etilgan Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini  
moddiy - texnika bazasini mustaxkamlash maqsadida begaraz berilgan asosiy  
vositalarni

**TAQSIMOT JADVALI**

<b>№</b>	<b>Asosiy vositalar va moddiy boyliklarni nomlanishi</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>Miqdori</b>
1	Monoblok HP 200 G4 22 ALL-in-One PC	Dona	5 (besh)
2	Videokonferensaloqa kamerasi uchun Kronshteyn	Dona	1(bir)
3	Videokonferensaloqa kamerasi Huawei T20	Tўплам	1(bir)
4	Televizor LG 43	Dona	1(bir)
5	Printer Canon I –SENSYS LBP 2900	Dona	1(bir)
6	Printer Canon I –SENSYS LB 6030 B	Dona	1(bir)
7	Printer Epson L 222 (rangli)	Dona	1(bir)